

**REZYUME.** The article analyzes the development of cinematographic styles in Uzbek feature films through the example of the subjective camera. I. Lutfullayev's visual styles are examined from an art studies perspective, exploring their dramaturgical function, expressive potential, and system of visual imagery.

## TALABA – AKTYORNING KAMERA OLDIDA ISHLASH JARAYONIDAGI MUAMMOLAR

**Eldor Xushvaqtoʻv** – dotsent v.b.  
*Oʻzbekiston davlat sanʼat va madaniyat instituti*

**Tayanch soʻzlar:** oʻzbek kino sanʼati, kino aktyorligi, aktyorlik mahorati, aktyorlik maktabi, kamera, hissiyotlar, harakatlar, kamera salobati, K.S.Stanislavski, aktyor tayyorgarligi, ichki va tashqi tayyorgarlik, maxsus bilimlar, teatr va kino farqlari, rol, rolni ijro etish.

**Ключевые слова:** узбекский кинематограф, киноактёрство, актёрское мастерство, школа актёров, камера, эмоции, движение, К.С.Станиславский, подготовка актёра, внутренняя и внешняя подготовка, специальные знания, различия между театром и кино, роль, исполнение роли.

**Key words:** uzbek cinema, film acting, acting mastery, acting school, camera, emotions, movement, camera authority, K.S.Stanislavski, actor preparation, internal and external preparation, specialized knowledge, differences between theater and cinema, role, role performance.

Kino sanʼati paydo boʻlganidan buyon, ushbu sohada kino aktyorligi sanʼati ham bir qator oʻzgarishlar va rivojlanish jarayonlarini boshdan kechirdi. Albatta, oʻzbek kino sanʼati oʻz tarixida turli siyosiy, iqtisodiy va maʼnaviy inqirozlar orqali oʻtgan haqiqat. Biroq, shunga qaramay, har davrda va har qanday sharoitda ham milliy kino sanʼati oʻz xususiyatlarini, anʼanalari va yuzini saqlab qoldi va oʻz rivojlanishini davom ettirdi. Kino maydonidagi hamda kadr ortidagi jarayonlar, kino aktyorligi va rejissyorlik mahorati maktabining tashkil topishi, shakllanishi va rivojlanishiga sabab boʻlib, milliy kino sanʼati shakllanishiga va zamon bilan hamnafas boʻlishiga zamin yaratdi.

Milliy kino sanʼati tarixiga va uning rivojlanishiga nazar solganda, albatta, oʻzbek milliy aktyorlik sanʼati va rejissyorlik mahorati maktabini eslatmaslik imkonsizdir. Har qanday sanʼat turlarida, shu jumladan kino sanʼatida, ushbu mahorat maktabi anʼanalariga asoslanadi. Milliy mahorat maktabi oʻz poydevorini kuchli bilim va anʼanalarga tayangan holda yaratadi. Bu esa kino sanʼati qiyofasining shakllanishi, rivojlanishi va oʻziga xosligini taʼminlaydi. Kino sanʼatiga oʻz hissasini qoʻshgan va qoʻshayotgan betakror isteʼdodli sanʼatkorlar ana shu sanʼat mahorati maktabining anʼanalarida kamolotga erishganlar. Har bir davrda, har bir jarayonda kino aktyorligi kasbi ham oʻzgarib borgan. Oʻzbek kino sanʼatida esa koʻplab yirik sanʼatkorlarning ijodlari asosida kino aktyorligi mahorati maktabining sir-asrorlari shakllangan. Bugungi kunda ushbu kasb oʻzining yuksakligi, milliy

qadriyatlarini, anʼanalari va ijro uslublari bilan oʻziga xos oʻrin egallab kelmoqda.

Teatr sahnasi aktyor uchun ahamiyatli boʻlishi haqida hammamizga maʼlum. Kinoda esa aktyor uchun kamera katta ahamiyatga ega. Kamera, jonsiz predmet boʻlsa ham, har bir ijodkor tomoshabinlarga aynan kamera orqali tasvirlarni koʻrsatadi. Aktyorga esa bu katta masʼuliyatni yuklaydi, shuning uchun ham ijodkorlar orasida “kamera salobati” degan ibora mavjud. Kino sohasi bilan yangi tanishayotgan yosh ijodkorlar uchun kamera salobati katta toʻsiq boʻlishi mumkin. Har qanday aktyor, hatto juda isteʼdodli boʻlsa ham, kamera oldida baʼzida hayajonlanishi tabiiydir. Bir asrdan ziyod vaqt avval K.S. Stanislavskiyning aktyorlar uchun belgilagan talablari va aktyorlik mahorati tamoyillari nafaqat drama teatri, balki kinematografiya vakillari uchun ham ahamiyatli boʻlgan. Ustaning mahorat sirlarini egallagan har bir teatr aktyori kinematografiya sohasida ham muvaffaqiyatli ijod qila oladi.

Stanislavskiy tamoyillari teatr va kino sahnalarida ham birdek oʻz ahamiyatini saqlaydi. Lekin, kino sohasi oʻziga xos talablarni ham qoʻyadi, va Stanislavskiy bu qoʻshimcha talablarni oʻz asarlarida ishora qilgan. “Ekkranda hamma narsa koʻrinadi, har qanday kichik detallar tasvirga olinadi” [1].

Kino tasvirga olish jarayonida, kamera oldidagi aktyor uchun har bir detallarga alohida eʼtibor qaratish zarur. Kamera bir vaqtning oʻzida millionlab tomoshabinlarning nigohidir. Kameraning har bir xatti-harakatni tasvirga olish qobiliyati aktyorga katta masʼuliyatni yuklaydi.

Aktyor o'zining barcha ko'nikmalariga ega bo'lishi, tashqi ko'rinishi, xatti-harakatlari va ma'naviy holatini puxta nazorat qilib turishi zarur. Kino aktyori uchun eng murakkab vazifa - bu, kamera qarshisida kerakli hissiyot va harakatlarni to'g'ri ifodalashdir. Aktyor bu jarayonda o'z ichki hissiyotlarini ishlatishi, atrofdagi voqea-hodisalardan tasavvurga ega bo'lishi, shuningdek, asar voqealariga "kirib" o'zi his qilgan holatda xatti-harakatlarini ifodalashi zarur. Teatrda sahna tomoshabinlardan bir necha pog'ona baland joyda bo'lishi va spektakl davomida birga ishlashni talab qiladi. Kino sahnasida esa aktyor turli joylarda, ko'cha, do'kon yoki boshqa gavjum joylarda rol ijro etadi. Kamera qarshisida u ko'pincha tasodifiy tomoshabinlarning ko'z o'ngiga tushadi va bu holatda uning ijro uslubi teatr sahnasidan farq qiladi. Shu nuqtada aktyor qanday yondoshuvni tanlashi kerak? Ilhom manbai qayerdan olinadi? Taniqli ustoz Munavvara Abdullayeva "Dramatik teatr va kinoda aktyorlik mahorati" asarida shunday fikrlarni bildiradi: "Aktyor o'z ijodiy faoliyati davomida turli xil obrazlarni ijro etadi va har biriga individual yondashadi. Shu orqali aktyor mahorati va iste'dodining ko'p qirrali ekanligi shakllanadi" [2]. Aktyor har bir rolni ijro etishda ruhiy va jismoniy tayyorgarlikni talab qiladi. K.S. Stanislavskiy buni "rol gigienasi" deb atagan.

Afsuski, ko'plab aktyorlar tayyorgarlikning faqat tashqi ko'rinishini o'ylashadi va ichki ruhiy tayyorgarlikni e'tiborsiz qoldiradilar. Bu esa aktyorlik kasbiga hurmatsizlikka olib keladi.

Ko'plab ulug' san'atkorlar o'z-o'zini rolga tayyorlash uchun alohida vaqt ajratadilar. Yosh aktyorlar esa bu jarayonni ko'p hollarda e'tiborsiz qoldiradilar. Aktyorlik san'atiga o'rganish, ichki va tashqi tayyorgarlik muhimdir. Teatr va kino aktyorligi bo'yicha o'qituvchilar talabalarini tayyorgarlik jarayoniga muntazam ravishda o'rgatishlari lozim.

Aktyorning rolga tayyorgarligi ichki his-tuyg'u va tashqi detallarni to'g'ri ifodalashni o'z ichiga oladi. Bugungi kunda aktyorlar rol ijro etishda yangilik yaratish uchun o'zlarining hissiyot xotiralarini va hayotiy taassurotlarini ishlatishlari zarur. Kamera oldida ijro etishning maqsadi - tomoshabinga to'g'ri ifodalalar orqali ma'naviy ozuqa berishdir.

Aktyor o'z rolini to'g'ri ifodalash uchun, faqat tashqi ko'rinishiga e'tibor bermay, kasbiga oid maxsus bilimlarga ham ega bo'lishi zarur. Misol uchun, shifokor yoki militsiya xodimi rolini ijro etadigan aktyor bu kasblarning mayda detallari bilan tanishib, o'rganishi kerak. Bunday bilimlar rol ijrosining muvaffaqiyatini ta'minlaydi va kichik xatolarni oldini oladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Stanislavskiy K.S. «Aktyorning o'z ustida ishlashi». T.Xo'jayev tarjimai.-T.: (qayta nashr) Badiiy adabiyot, 2010.
2. Abdullayeva M. «Dramatik teatr va kinoda aktyorlik mahorati». «Tafakkur qanoti» nashriyoti.-T.: 2014.
3. Djon Benedikt. «Aktyorning o'z ustida ishlashi» (K.S.Stanislavskiy). 2-qism. Routledge. 2008.
4. Lenard Petit. «For the Actor» («Aktyor texnikasi»)- Taylor & Francis, 2009.
5. Mahmudov J. Maxmudova X. «Aktyorlik mahorati». -T.: Lesson Press. 2016y.
6. Sayfullayev B., Mamatqosimov J. Aktyorlik mahorati. -T.: Fan va texnologiya. 2012.

**REZYUME.** Ushbu maqolada o'zbek kino san'ati va kino aktyorligining rivojlanish tarixi, o'ziga xos xususiyatlari va zamon bilan hamnafas bo'lishi masalalari ko'rib chiqiladi. Kino aktyorligi san'ati va uning mahorati maktabi haqida so'z boradi, shuningdek, aktyorning kamera oldida o'z hissiyotini, harakatlarini ifoda etish, hamda kamera salobatini his etish muhimligi ta'kidlanadi. K.S. Stanislavskiyning aktyorlik mahorati va uning kino sohasiga ta'siri haqida alohida to'xtalib o'tilgan. Maqolada aktyorning o'z rolga tayyorgarligi, ichki va tashqi tayyorgarlikning ahamiyati, kasbning ma'lum detallari va maxsus bilimlarga ega bo'lishi zarurligi haqida fikr yuritiladi. Maqolada teatr va kino o'rtasidagi farqlar, aktyorning ijro etgan roli va uning to'g'riligi ustida ishlash jarayoni keng yoritilgan.

**РЕЗЮМЕ.** В этой статье рассматриваются история развития узбекского кинематографа и актёрского мастерства, его уникальные особенности и соответствие времени. Обсуждается искусство актёрского мастерства в кино и создание школы актёрского мастерства, а также подчёркивается важность способности актёра выражать свои эмоции и движения перед камерой, а также ощущение "власти камеры". Особое внимание уделяется методу актёрского мастерства К.С. Станиславского и его влиянию на кино. В статье также рассматривается подготовка актёра к роли, значение внутренней и внешней подготовки, а также необходимость обладания определёнными деталями профессии и специальными знаниями. Освещаются различия между театром и кино, процесс работы актёра над ролью и корректность её исполнения.

**SUMMARY.** This article examines the history of the development of Uzbek cinema and film acting, its unique features, and its alignment with the times. It discusses the art of film acting and its mastery, emphasizing the importance of an actor's ability to express emotions and movements in front of the camera, as well as the significance of feeling the "salobat of the camera". The article also specifically addresses K.S. Stanislavski's acting method and its influence on cinema. Additionally, the article reflects on the actor's preparation for a role, the importance of both internal and external preparation, and the necessity of possessing specific details and specialized knowledge related to the profession. The differences between theater and cinema, the process of working on a role, and the correctness of its execution are also explored in depth.

## ЭСКИ СПЕКТАКЛНИНГ ЯНГИЧА ТАЛҚИНИ

Исмайлов Ажинияз Есбергенович – ўқитувчи

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти Нукус филиали

**Таянч сўзлар:** театр, драматург, актёр, режиссёр, спектакль, ижодкор, репертуар, декорация.

**Ключевые слова:** драматург, театр, актёр, режиссёр, спектакль, создатель, репертур, декорация.

**Key words:** theater, playwright, actor, director, play, creator, repertoire, decoration.

Ўтган асрнинг сўнги чорақлигида ўзининг қайноқ ижоди билан қорақалпоқ драматургиясининг гуллаб-яшнашига салмоқли ҳисса қўшган драматург, Қорақалпоғистон халқ шоири, Бердақ номидаги давлат мукофотининг лауреати Кенесбай Раҳмановнинг ижодини кўздан кечирсак, унинг саҳна асарларининг турли жанрларда ёзилганлигининг гувоҳи бўламиз.

Драматург К.Раҳмановнинг деярли барча пьесалари муваффақият қозонган.

Драматург К.Раҳмановнинг замон танламайдиган саҳна асарларидан бири «Нариги дунёга таклиф» («О дуньяға мирэт») спектакли дастлаб 1976 йили режиссёр Н.Ансатбаев томонидан саҳналаштирилиб саҳна юзини кўрди. Асар 2010 йили қайта қўлга олиниб, «Ўғрини қароқчи босди» номи билан томошабинларга тақдим этилди. [1,141-154] Бердақ номидаги Қорақалпоқ давлат академик мусикали театри трагикомедия жанрида ёзилган мазкур асарни 2024 йили қайта қўлга олиб, уни саҳналаштиришдаги асосий сабабларининг бири саҳна асарининг мавзуси ва ғоясида. Драма жанрига айлантирилган ва «Жар» номи билан томошабинлар эътиборига тақдим этилган спектаклни режиссёр Марқабай Усенов саҳналаштирди. Спектаклда бугунги кундаги долзарб бўлган фарзанд тарбиясига баъзи ота-оналарнинг бефарқлиги, молу-давлатга ружу қўйиш, давлат хизматчиларининг коррупцияга қарши кураши мавзулари кўтарилган.

Онасининг машинасини ҳайдаб чиқиб кетган Норпўлат билан бахтсиз ҳодиса юз

беради. Асарнинг тугуни мана шу ердан бошланади. Оилавий бир таниши Шерниязнинг (Руслан Қайпназров) ўз муаммосига ечим излаб турганида, Норпўлат велосипедли қизни машинада уриб юбориб, ўзи қочиб кетганини эшитган Улпери (М.Мамбетмуратова) саросимага тушиб қолади. Асардаги воқеалар ривожланиб бориши билан бу оиланинг бошига шиддатли мудҳиш воқеалар ёмғир каби ёға бошлайди.

Дастлаб, Шернияз дўконда текшириш томонидан топилган камоматни қоплашидан умид қилиб, Тошпўлатни (Данияр Қудайназаров) Дубайдан чақиртиради. Ўғлининг ташвиши устига яна ташвиш бўлиб қўшилган воқеа – бу йиғилган бир чемодан долларларни ўғирлаб кетишганини бўлди. Бу воқеадан милициянинг хабар топишини истамаган уччовлон, вазиятдан чиқиш учун жиноят изидан яна жиноят содир этишади.

Қўшнисидан гумонсираган Тошпўлат ва Шернияз Улперини зўрға қўндириб, қўшнисининг ҳовлисига туширади. Уларнинг ҳаёлида: пулни ўғирлаган қўшниси пулларни молхонага яширишган. Лекин иш силлиқ кетмайди, Улперини ўғирликга тушган қўшни ҳовлидаги ийт тишлаб олади. Чигал воқеалар мана шу воқеадан кейин ойдинлаша бошлайди. Норпўлат одам уриб юбормагани, унинг ўзи ноқобил дўстлариининг қурбонига айлангани, бир чемодан пул ҳам "дўстлар" томонидан ўғирлангани кўрсатилади. Бу воқеаларга чидай олмай, ақлдан озаган Улпери уйига ўт қўяди ва ўзи ҳам қурбон бўлади.